O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor v.v.b
_____A.Berdibaev
“28”- oktyabr 2026 jil

10.00.08 – Folklorshunoslik ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kiruvchilar uchun mutaxassislik fanidan tayanch doktoranturaga kirish imtihoni

DASTURI

Nukus – 2026

K I R I SH

Mazkur dastur 10.00.08 – Folklorshunoslik ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni uchun mo‘ljallangan bo‘lib, folklorshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlar, dolzarb muammolar, zamonaviy yo‘nalishlar, nazariy ta’limotlarga oid bilim va ko‘nikmalarni tekshirish va baholash uchun ishlab chiqilgan. Dastur O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standarti, „Ta’lim to‘g‘risida“gi va „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida“gi qonunlari asosida va uning talablariga muvofiq tuzildi.

Dasturni tuzishda „Turkiy xalqlar folklori“, „O‘zbek folklori“, „Bolalar adabiyoti va folklor“ kabi fan dasturlariga tayanildi.

Dastur Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Kengashisining 2026-yil ____- _____dagi ____-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar: **N.Allambergenova –** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti)

H.Allambergenov – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti)

Taqrizchilar: **M.Qurbaniyazov** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Qoraqalpoq davlat universiteti).

K.Palimbetov – filologiya fanlari doktori (DSc), professor. (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti)

KIRISH IMTIHONINING ASOSIY TALABLARI

10.00.08 – Folklorshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonida sohaga oid mavzular bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bayon qila olishi talab etiladi. Zotan xalq og‘zaki ijodi namunalarining sinkretik san’at sifatida xalq ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutishini, unda o‘zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o‘zining badiiy ifodasini topganini, xalqning o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usi aynan og‘zaki ijod zaminida tashkil etishi ko‘nikmalarining mavjudligi tadqiqotchini kelgusi ulkan marralar sari yetaklaydi.

Kirish imtihonini topshirayotgan talabgor quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

– turkiy xalqlar folkloridagi ijtimoiy-siyosiy aloqalarining tarixiy ildizlari, islomgacha bo‘lgan turkiy xalqlar og‘zaki ijodi, turkiy xalqlar folklorining janrlar tarkibi, folklorning tur va janrlarga bo‘linishi borasida ko‘nikmaga;

– folklorda motiv va sujet, turkiy xalqlar og‘zaki ijodining jahon xalqlari adabiyoti bilan mushtarakligi masalasi, turkiy xalqlar og‘zaki ijodining o‘ziga xos va mushtarak xususiyatlari, turk xalq folklorining qadimiy ildizlari, turk xalq ertak, afsona va rivoyatlarida mavzu rang-barangligi to‘g‘risida bilimga;

– tadqiqot mavzusini shakllantirish, mavzuga mos ilmiy tadqiqot metodini tanlay olish malakasiga;

– xalq og‘zaki ijodi janrlari va ularning xususiyatlarini aniqlashi, janrlararo munosabat mezonlarini belgilashi, folklor va adabiyot munosabati haqida tushunchaga;

– o‘zlashtirilgan nazariy bilimlari asosida folklorshunoslik sohasi ilmiy tadqiqida amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholay olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi lozim.

DASTURNING ASOSIY MAZMUNI

10.00.08 – Folklorshunoslik

Turkiy xalqlar folkloridagi ijtimoiy-siyosiy aloqalarining tarixiy ildizlari

Islomgacha bo‘lgan turkiy xalqlar og‘zaki ijodi. Turkiy xalqlar folklorining janrlar tarkibi. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining jahon xalqlari adabiyoti bilan mushtarakligi masalasi. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining o‘ziga xos va mushtarak xususiyatlari.

Turkiy xalqlar folklori taraqqiyoti

Turk xalq folklorining qadimiy ildizlari. Turk xalq ertak, afsona va rivoyatlarida mavzu rang-barangligi. Turk folklorining boshqa turkiy xalqlar og‘zaki ijodi namunalari bilan qiyosiy tahlili. Zamonaviy turk va turkiy xalqlar marosim folklori o‘ziga xosligi. Qozoq folklori. Qozoq xalq dostonlari. „Qo‘blandi botir“, „Er Targ‘in“, „Qambar-botir“, „Qo‘zi ko‘rpesh va Boyan suluv“, „Qiz Jibek“, „Isatay va Maxambet“ dostonlari sujetlari. Qozoq xalq ertaklari. Qirg‘iz xalq og‘zaki ijodi janrlar tarkibi. Turkman folklorining janrlar tarkibi

Folklorshunoslik nazariyasi va poetikasi

Folklorda motiv va sujet. Folklorning tur va janrlarga bo‘linishi. Folklorshunoslik maktablari. Mifologik maktab nazariyasi. Fin folklorshunoslik maktabi. Migratsion maktab. Antropologik maktab. Tarixiy maktab. Ritual-mifologik maktab. Folklorshunoslik metodlari. Qiyosiy-tipologik metod. Kartografik metod. Strukturual tahlil metodi.

Turkiy xalqlar folklorining janriy xususiyatlari

Turkiy xalqlar folklorida ertak, afsona, rivoyat va latifa janri. Turkiy xalqlar folklorida maqol janri o‘ziga xosligi. Qadimgi turkiy xalqlar adabiyotining janr xususiyatlari. Bilig, o‘tluk, tabzug‘, sandrush, yig‘i-yo‘qlov, to‘rtlik, tuyuq, alqish, qarg‘aq, qoshug‘, yir, ko‘g, sav janrlarining o‘ziga xos belgilari. Folklor janrlarini o‘qitishda mediata’lim resurslarini yaratishning ilmiy-metodik asoslari

Turkiy eposlar taraqqiyoti

„Qo‘rqut ota kitobi“ va uning turkiy xalqlar og‘zaki ijodida tutgan o‘rni. „O‘g‘uznoma“ eposida turkiy xalqlar tarixining yoritilishi. „Manas“ eposida umumturkiy qahramonlik g‘oyalari. Turkman xalq og‘zaki ijodida „Go‘ro‘g‘li“ turkumidagi dostonlar. Turkiy xalqlar eposlarida milliy qadriyatlar talqini

O‘zbek va qoraqalpoq folklori tipologiyasi

O‘zbek va qoraqalpoq folklorida naql janri. „Alpomish“ dostonining o‘zbek va qoraqalpoq versiyalari. Qoraqalpoq folklori va boshqa turkiy xalqlar bilan qiyosiy tipologiyasi. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida mifologiya. Turkiy xalqlar folklorida g‘ayritabiiy timsollar. Turkiy xalqlar folklori va yozma manbalar munosabati.

Turkiy xalqlar folklori tadqiqotchilar nazarida

Turkiy xalqlar folklori xorijiy tadqiqotchilar nazarida: Viktor Jirmunskiy, Karl Rayxl. Sergey Tolstov, Gleb Pavlovich Snesarev. Amanmurad Baymuradov va turkman folklorshunosligi. Abay va qozoq folklori. Sabit Muqanov, Seyit Qasqabasov, Auelbek Qongiratbaev va qozoq folklorshunosligi. Nizami Mammadov va turkiy xalqlar folklori. Aynur Oz Ozcan tadqiqotlarining turkiy folklorshunoslikdagi o‘rni

O‘zbek va qoraqalpoq folklorshunosligi darg‘alari

Hodi Zaripov – o‘zbek folklorshunosligi asoschisi. To‘ra Mirzayev – ilk o‘zbek folklorshunos akademigi sifatida. Qalli Ayimbetov, Qabil Maqsetov, Kenesbay

Allambergenovlarning qoraqalpoq folklorshunosligi rivojidagi orni. Mamatqul Jo‘rayev va o‘zbek folklorshunosligi. Shomirza Turdimovning va o‘zbek folklorshunosligi. Jabbor Eshonqulov – folklorshunos olim.

Folklor ma’naviy tarbiyaning poydevori. Xalq og‘zaki ijodi so‘z san’ati sifatida

Folklorning so‘z san’atiga aloqasi va san’at inson tafakkur salohiyatining natijasi ekanligi o‘rganiladi. Mahorat va fikriy kashfiyot san'atning muhim belgilaridan biri xususida so‘z boradi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari mahorat, aqliy (fikriy) kashfiyot namunalarining badiiy ifodasi sifatida tahlil qilinadi.

Mif va uning badiiy talqinlari. Afsona, rivoyat, naqllarning badiiyati

Mif tushunchasi izohlanib, uning xalq og‘zaki ijodi asarlari tarkibiga badiiy estetik holatda o‘tish jarayoni o‘rganiladi. Mifologik tafakkurning badiiy estetik tafakkurga o‘tish bosqichlari afsona, rivoyat, naql, epos, ertak, qo‘shiq misolida ochib beriladi. Afsona, rivoyat, naql atamalari haqida ma'lumot. Ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari. Afsona va rivoyatlar tasnifi. Osmon yoritgichlari, tog‘, daraxt, suv, olov va hayvonlar bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar tahlil etiladi. To‘maris va Shiroq rivoyatlari asosida Vatan mavzusi yoritiladi.

Mavsumiy va oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati.

Mavsumiy marosim folklorida so‘z magiyasining badiiy estetik sathga o‘tishi va boshqa masalalar yoritiladi. Xalqona taqvimlar, Navro‘z, shohmoylar, Sust xotin, Choy momo, loy tutish kabi marosimlarning verbal tizimi tahlil etiladi. Oilaviy marosim janrlari yor-yor, kelin salom, o‘lan va boshqa namunalraning badiiyati, ma'no qatlamlari ko‘rsatiladi. Ushbu marosim janrlarining obrazlar tizimi, she'riy tuzilishi ohang yo‘llari tahlil etiladi, o‘ziga xos jihatlari yoritiladi.

Xalq dostonlari

Doston janri haqida ma'lumot. Doston - xalq og‘zaki ijodining sinkretik janri sifatida. Dostonda badiiy matn (nazm va nasr) va musiqaning o‘rni. Xalq baxshilari, dostonchilik maktablari haqida ma’lumot. Xalq dostonlarining ijro an'anasiga ko‘ra (Samarqand, Xorazm, Farg‘ona) turlari. Dostonlarning tasnifi (qahramonlik, romanik, tarixiy, kitobiy, jangnoma dostonlari) haqida ma’lumot. Xalq dostonlarida turkumlik.

“Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlari g‘oyaviy-badiiy sathda o‘rganiladi. Epos va etnos masalasi ko‘rib chiqiladi. Dostonlardagi yetakchi qahramonlar genezisi tadrijiy bosqichlari yoritiladi. Asosiy motivlarning syujet ko‘lamidagi o‘rni o‘rganiladi. Dostonlardagi epik qoliplar, an’anaviy she’riy takrorlarning badiiyati keng yoritib beriladi.

“Ravshan”, “Qunduz va Yulduz”, “Kuntug‘mish”, “Malika Ayyor”, “Orzigul” kabi dostonlar poetikasi tahlili orqali romanik dostonlarga xos xususiyat va belgilari ochiladi. Romanik dostonlarning yetakchi motivlari, ularning qahramonlari, syujet tiplari, badiiy tasviriy vositalari, g‘oyaviy qatlamlari tahlil qilinadi.

“Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Bahrom va Gulandon” kabi dostonlar asosida folklor – adabiyot, adabiyot – folklor tadrijiy o‘tish bosqichlarini, bu dostonlarning xalq badiiy estetik tafakkuri rivojidagi o‘rni va xizmatlari ko‘rsatiladi, folkloriy tafakkurning qonuniyatlari borasida so‘z yuritiladi.

Xalq ertaklari

Ertak xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri ekani. Ertak janrini anglatuvchi atamalar. Ertakda xalq hayoti, orzu-istaklari, psixologik dunyosining aks etishi. Xalq ertaklarining janr xususiyatlari. Ertaklarning mazmuniga ko‘ra tasnifi.

A) Hayvonlar haqidagi ertaklar. Hayvonlar haqidagi ertaklar genezisi, ularning mifologik va mavsumiy marosimlar bilan aloqasi, badiiy ramz va timsollari haqida so‘z boradi. “Susambil”, “Tuxum bilan buyrak”, “Qirq quloq”, “Ovchi, ko‘kcha va dono”, “Bo‘ri bilan

tulki” kabi ertaklar tahlili vositasida nazariy fikrlar dalillanadi.

B) Sehrli-fantastik ertaklar va ularning talqinlari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Sehrli-fantastik ertaklar mag‘zidagi xalq falsafiy dunyoqarashi va uning badiiy talqinlari, ramz va timsollari ochiladi. “Kulsa gul, yig‘lasa dur”, “Ur, to‘qmoq”, “Ahmadlar”, “Gungula”, “Dunyoda yo‘q hunar” kabi ertaklar tahlili orqali sehrli-fantastik ertaklarning badiiyati, g‘oyaviy mazmuni ko‘rib chiqiladi.

V) Hayotiy-maishiy ertaklar. Hayotiy-maishiy ertaklarda ijtimoiy hayot muammmolari ifodasi. Ularda do‘stlik, mardlik, zakiylik, insonparvarlik kabi shaxs fazilatlarining ulug‘lanishi. “Uch ko‘r va bir yigit”, “Egri va to‘g‘ri”, “Uch og‘ayni botirlar” kabi hayotiy-maishiy ertaklarning badiiy qimmati, g‘oyaviy ko‘lami yoritiladi. Hayotiy-maishiy ertaklarga xos syujet tiplari, yetakchi motivlar, asosiy qahramonlar o‘rganiladi.

Mehnat qo‘shiqlari va termalar

Mehnat qo‘shiqlarining folklor san'atidagi o‘rni ochiladi. Qo‘shiqlarning mehnat turlariga ko‘ra farqlanishi, mehnat jarayoni va ibtidoda turli marosimlar bilan bog‘liq jihatlari ko‘rsatiladi. Mehnat qo‘shiqlari tarkibiga kirgan lirik xarakterdagi namunalar, xususan, “Yozi qo‘shiqlari” va boshqa misollar keng talqin etiladi. Terma janrining xalq epik ijodidagi o‘rni, mavzu doirasi, g‘oyaviy badiiy xususiyatlari ko‘rsatiladi. Xalq termalarining baxshi- shoirlar ijodidagi, epik asarlar ijro jarayonidagi vazifalari tahlil etiladi. An’anaviy va individual termalar qiyosan o‘rganiladi.

Lirik qo‘shiqlarga xos xususiyatlar, ularning ijro o‘rni, ohang yo‘llari, an'anaviy takrorlari, qo‘shiqlarda parallelizm, vazn, qofiya, badiiy til masalalari, mavzu turlari o‘rganiladi. Lirik qo‘shiqlarda ramz va timsollarning vazifalari ko‘rsatiladi. Qo‘shiqlarning janr xususiyatlari, asosiy xossalari o‘rganiladi, ularning inson qalb kechinmalari tarjimoni ekanligi ta'kidlanadi.

Bolalar folklori va ularning talqinlari, badiiy xususiyatlari

Bolalar folklori xalq og‘zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida. Bolalar ertaklari va qo‘shiqlari misolida xalqning qadimiy dunyoqarashlari, marosimlari izining badiiy ko‘rinishda saqlanib kelayotgani va so‘z san’atining o‘ziga xos muhim bosqichi sifatida namoyon bo‘lishi tahlil etiladi. Bolalar qo‘shiqlarining tasnifi, o‘yin va qo‘shiq hamda boshqa masalalar batafsil yoritiladi.

Xalq maqollari va topishmoqlar

Paremiologiya haqida ma’lumot. Maqol va uning janr xususiyatlari. Maqollarning badiiyati, obrazlilik, o‘z va ko‘chma ma'nolari. Xalq maqollarining tasnifi, semantik ko‘lami, ularning boshqa parmeologik janrlardan farqli jihatlari, janriy xususiyatlari ko‘rsatiladi. Topishmoqlarda narsa va hodisalarning obrazlar vositasida yashirinib kelishi, ularning til imkoniyatlarini ochuvchi, inson aqlini charxlovchi o‘ziga xos janr ekanligi yoritiladi.

Topishmoq – paremik janr sifatida. Topishmoqlarning ma'rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari. Topishmoq poetikasi (timsollar olami, syujet va kompozitsion jihatlar). Topishmoq va chiston, muammo, tarix. An’anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari.

Latifalar, lof, askiya

Latifa xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan kichik nasriy janri sifatida. Latifalarning janr xususiyatlari va badiiy qatlam ma'nolari ochiladi. Ularning kompozitsion jihati, til xususiyatlari, zamonaviy latifalarning ijtimoiy mazmuni yoritiladi. Nasriddin Afandi obrazining genezisi va unga yondash Ovul Patta, Jiyron Chechan kabi qahramonlar bilan bog‘liq jihatlari ko‘rsatiladi.

Loflardagi mubolag‘a san’atining o‘rni va badiiy vazifalari tahlil etiladi. Loflar – askiyaga yaqin turuvchi janr sifatida. Mubolag‘a va uning turlari haqida ma’lumot.

Askiya san’atining noyob folklor janri ekanligi, o‘ziga xos belgilari. Askiya o‘zbek xalqining milliy merosi sifatida . Askiyaning payrov, gulmisiz, o‘xshatdim va boshqa turlari. So‘z o‘yinlarining askiyadagi ahamiyati. Askiyachilar haqida ma’lumot. Askiyachi ijodida omonim so‘zlardan foydalanish mahorati. Askiyalarning turlari, askiyachilari haqida ma’lumotlar beriladi.

Tomosha san’ati

Xalq dramasi haqida ma’lumot. Xalq dramasining janr xususiyatlari. Tomosha san’atining o‘zbek teatr tarixi ibtidosida turishi, tomoshalarning xalq bayram sayllari va marosimlari bilan genetik bog‘liq jihatlari, kompozitsion ixchamlik, syujetning tez rivojlanishi. Dramada satira va yumorning o‘rni, ahamiyati. Xalq dramasida askiya va lof janrlarining belgilari. Satira va yumor haqida ma’lumot. Xalq dramalari badiiyati.

Xalq og‘zaki ijodi fani asoslari bo‘yicha xulosa va yakuniy mulohazalar.

Kirish imtihonining yozma ish shaklida o‘tkazish tartibi va baholash mezoni

Doktoranturaga kirish sinovlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son Qarori bilan tasdiqlangan «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq tashkil qilinadi.

Doktoranturaga kirish sinovi umumiy ballari quyidagilardan tashkil topadi:

Doktoranturaga kirishda tanlagan mutaxassislik bo‘yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov o‘tkaziladi (baholash 100 ballik mezonda tashkil etadi):

90-100 ball (jami balning 90-100%) fanni mukammal o‘zlashtirgan, variantda ko‘rsatilgan savollarga so‘z va iboralardan foydalanib, nazariy jihatdan asoslagan, chuqur va ilmiy-tahliliy tarzda yorita olgan talabgorlarga qo‘yiladi. Shuningdek, bunda talabgorning mustaqil ko‘nikmalari va qo‘shimcha manbalardan foydalanganligi ham hisobga olinadi.

70-89 ball (jami balning 70-89%) fanni o‘zlashtirgan, variantda ko‘rsatilgan savollarga so‘z va iboralardan foydalanib javob bermagan, lekin faqat savolning o‘zi bilan cheklanib, tavsiya etilgan darslik va qo‘llanmalarda berilgan fikrlardan ijodiy foydalana olgan, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo‘yiladi.

60-69 ball (jami balning 60-69%) fanni qisman o‘zlashtirgan, qo‘yilgan savollarga qisman javob bera olgan, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo‘yiladi.

60 % dan kam ball savollarni yoritishda so‘z va iboralarga qoniqarli javob bermagan, variantdagi savollarga javoblarini to‘liq yorita olmagan, ilmiy jihatdan asoslamagan talabgorlarga qo‘yiladi.

Barcha doktorantlar mutaxassislik bo‘yicha kiruvchilarni mutaxassislik fanlardan reytinglarini aniqlashda, baholash mezoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– sinov bilet asosida yozma ish shaklda o‘tkaziladi;

– har bir biletga 5 (besh) tadan savol kiritiladi;

– har bir bilet Davlat standartlari bo‘yicha magistrantlar tayyorlash dasturiga kiritilgan mutaxassislik fanlarni asosiy tushunchalaridan tashkil topadi;

– biletga kiritilgan har bir savol 20 (jami 100) ballik sistemada baholanadi.

DOKTORANTURAGA KIRUVCHILARNI BILIMINI BAHOLASH MEZONI

№	Doktoranturaga kiruvchining bilim darajasi	Ball
1	Nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo’lib, mustaqil mushohada yuritib, masalaning mohiyatini tushinib, bu haqda chuqur tasavvurga ega, ilmiy jihatdan asoslagan, qo‘shimcha manbalardan foydalangan	18-20
2	Berilgan masala haqida mustaqil mushohada yuritgan, uning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo‘lgan, masalaning o‘zi bilan cheklanib, qo‘shimcha manba va adabiyotlardan foydalana olmagan	14-17
3	Masalaning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo‘lgan, savolga qisman javob bera olgan, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan	12-13
4	Berilgan masala haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmagan, savolga qisman javob yozgan, manbaalarda bor ma’lumotlarni to‘liq keltirmagan	0-11

Kirish imtihonining test sinovi shaklida o‘tkazish tartibi va baholash mezoni

Kirish imtihoni ko‘p variantli test sinovi shaklida o‘tkazilsa har bir variant 100 ta (yoki 50) test savollaridan iborat bo‘ladi. Test sinovini baholash 100 ballik tizim asosida amalga oshiriladi.

Talabgorlar bilim darajasini belgilashda 100 ta savoldan iborat test sinovi o‘tkazilganda:

- test sinovida 90-100 oralig‘ida to‘g‘ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 90-100 ball qo‘yiladi.
- test sinovida 70-89 oralig’ida to‘g‘ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 70-89 ball qo‘yiladi.
- test sinovida 60-69 oralig’ida to‘g‘ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 60-69 ball qo‘yiladi.
- test sinovida 60 tadan kam to‘g‘ri javobni topgan (60 baldan kam ball yig‘gan) talabgorlar sinovdan o‘tmagan hisoblanadi.

Kirish imtihoni bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 100 balgacha baholanadi (90-100 ball – a’lo, 70-90 ball – yaxshi, 60-69 ball – qoniqarli, 0-59 ball – qoniqarsiz)

Eslatma: *Doktoranturaga kirish imtihonlari jarayonida qo‘yilgan bahodan norozi bo‘lgan talabgorlar yakuniy baholar e’lon qilingan kundan e’tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Doktoranturaga kirish imtihonlari komissiyasi va talabgor o‘rtasida baholash ballari bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda imtixon raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.*

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Folklorshunoslik

1. Абдураҳмонов А. Туркий халқлар оғзаки ижоди (Энг қадимдан исломгача бўлган давр). Самарқанд, 2006.
2. Мирзаев Т. ва бошқалар. Ўзбек халқ оғзаки ижоди хрестоматияси. – Тошкент: Алоқачи, 2008.
3. Жўраев М., Эшонқулов Ж. Фолклоршуносликка кириш. – Тошкент: Баркамол файз медиа, 2017.
4. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. (Ўқув қўлланма) – Тошкент, 2008.
5. Жўраев М., Нарзиқулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. (Илмий-оммабоп нашр) – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.
6. Жаббор Эшонқул. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999.
7. Турдимов Ш. Гўрўғли достонининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011.
8. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: O‘zbekiston, 2012.
9. Эшонқулов Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006.
10. Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. - Тошкент: Фан, 2012.
11. Раҳмонов Н., Жўраев М., Турдимов Ш., Эшонқулов Ж., Тилавов А., Алламбергенов Ҳ. Туркий ёзма ёдгорликлар ва фольклор (қадимги даврлардан XIII асргача бўлган туркий ёзма манбалар асосида). Монография. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2020.
12. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986.
13. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 223.
14. Мадаев О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.
15. Жўраева М. Ўзбек фолклорида топишмоқ (монография). – Тошкент: Фан, 2012.
16. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990. – Б. 20-21.
17. Bekchanova S. O‘zbek – qoraqalpoq folklorida naql janri. (Monografiya) – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2021.
18. Алламбергенова Н. Алпомиш достонининг ўзбек ва қорақалпоқ версиялари

қиёси. (Монография) – Тошкент: Yosh avlod matbaa, 2021.
19. Алламбергенов Ҳ. Ғайритабиий тимсоллар – бадиий тафаккур маҳсули. (Монография) – Тошкент: Yosh avlod matbaa, 2022.
20. Aynur Oz Ozcan. Kadinlarla ilgili ozbek atasozleri.
21. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Ленинград: Наука, 1974
22. Сергей Толстов. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.
23. Баймырадов А. Туркмен фольклор прозасынын тарыхы эволюциясы. – Ашхабад: Ылым, 1982. – Б. 153-157.
24. Баротзода Ф. Притча о Мудром Лукмане – образец художественной прозы// Учёные Записки. Худжандского госуниверситет. – Худжанд, 2018, – №1(54) 2018. – С. 92-95.
25. Каскабасов С. Казахская несказочная проза. – Алмата: Наука, 1990. – С. 158-159.
26. Қасқабасов С. Қазақтың халық прозасы. – Алматы: Ғылым, 1981. – Б. 272.
27. Мақсетов Қ.М., Тажимуратов Ә. Қарақалпақ фольклоры. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. – 360 б.
28. Надршина Ф.А. Башкирская народная несказочная проза: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Уфа, 1998. – С. 50.
29. Назершина Ф. Халык хатере. – Уфа.: Башкортстан китап нашрияты, 1986. – Б. 129-133.
30. Пропп В.Я. Фольклор и действительность. – Москва, 1976. – С. 38.
31. Танаев Т. Эпикалык жанрлар. 2-китеп. – Ош, 1999. – Б. 78-80.
32. Köprülü M.F. Edebiyat Araştırmaları. Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara-1986. – S. 366–371.
33. Alptekin A.B. Halk Hikayelerinin Motif Yapısı. 2.Baskı. Akçağ Yayınları, Ankara – 2002. – S.42.
34. Kasap I. Halk Hikayeleri Üzerine. // Hece. Türk Öykücülüğü Özel Sayısı. Sayı:4. 2000. – S.127.
35. Қоңыратбаев Ә. Қазақ фольклорының тарихы. Алматы, 1991.
36. Әбілқасымова К, Тамаев А. Қазақ фольклористикасы. Алматы: Білім, 2007.
37. Құнанбаев А. Өлеңдер жинағы. I-II том. Алматы, 2005.